

G.O. ERNAZAROVA, I.A. YULDASHEVA, YU.R. JUMAYEVA

OILA PEDAGOGIKASI



34.013

E-26.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“International school of finance technology and science” instituti

G.O. Ernazarova, I.A. Yuldasheva, Yu.R. Jumayeva

OILA PEDAGOGIKASI

O'quv qo'llanma

(60110100– Pedagogika)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«ZEBO PRINTS»

Toshkent – 2025

- 5365/4 - x

Ernazarova G.O., Yuldasheva I.A. Jumayeva Yu.R./ OILA PEDAGOGIKASI / O'QUV QO'LLANMA. – Toshkent: "Zebo Prints", 2025. – 416 bet.

Mulliflar: p.f.d.,prof.Ernazarova Gulnora Oblaqulovna -International school of finance technology and science» instituti psixologiya va pedagogika kafedrası professori,

Jumayeva Yulduz Rasulovna,
Yuldasheva Inobad Ashuraliyevna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ilmiy-tadqiqotchilari

Taqrizchilar: p.f.d., prof.Absatova Marfuga Absatovna Abay
nomidagi Qozog'iston milliy pedagogika universiteti
professori,

p.f.d.,prof.Ximmataliyev D.O. Chirchiq davlat pedagogika universitetining «Maktab menejmenti» kafedrası professori

Ushbu o'quv qo'llanma oliya pedagogikasi fanidan ilmiy-amaliy bilim, konikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan, bakalavriatning barcha yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan pedagogika fanlari o'qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari, bakalavriatning pedagogika yo'nalishlari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Данное учебное пособие посвящено вопросу формирования и развития научно-практических знаний, конических сечений и умений по дисциплине семейная педагогика, предназначено для студентов всех направлений бакалавриата, им также могут пользоваться преподаватели педагогических дисциплин, слушатели курсов повышения квалификации, студенты педагогических направлений бакалавриата.

This textbook is devoted to the formation and development of scientific and practical knowledge, conic sections and skills in family pedagog discipline, is intended for students of all bachelor's degrees, it can also be used by teachers of pedagogical disciplines, trainees of advanced training courses, students of pedagogical bachelor's degrees.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'iga asosan, 724076 - raqamli nashr ruxsatnomasi asosida chop etishga tavsiya etildi.

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalar hamda pedagogika mutaxassisligida tahsil oluvchi magistrilar uchun mo'ljallangan.

Oila pedagogikasi o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari, tamoyil va metodlariga doir bilimlarni jamlaydi. Oila pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir tizimi bo'lib, u umumiy pedagogika qonuniyatlari asosida yaratilgan.

Oilada beriladigan tarbiya mazmuni, farzand tarbiyasida qo'llanadigan usul va vositalar, insoniyatning ma'naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasining uyg'unligi, oilada farzand tarbiyasidagi mahorat va madaniyatga amal qilish, oila tarbiyasiga doir muammolarning holati, qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan masalalar yoritilgan.

Аннотация

Настоящее учебное пособие предназначено для студентов, обучающихся на направлении «Педагогика» высших учебных заведений, а также для магистров специальности «Педагогика».

Семейная педагогика вбирает в себя знания о сущности, общим закономерностям, принципам и методам, прививаемые в семье для воспитания подрастающего поколения гармоничными личностями. Входя в единую систему общей педагогики, семейная педагогика создана на основе закономерностей общей педагогики.

В пособии освещены вопросы содержания семейного воспитания, приёмов и методов, применяемых в воспитании ребёнка, соответствия воспитания ребёнка в семье нравственному развитию человечества, мастерства семейного воспитания и его применения на практике, состояния проблем, связанных с воспитанием ребёнка в семье, изучения закономерностей семейного воспитания.

Annotatsiya

This manual guide is intended for students studying in the field of "Pedagogy and Psychology" of higher educational institutions, as well as for postgraduates studying in the specialty "Pedagogy".

Family pedagogy incorporates knowledge about the essence, general laws, principles and methods instilled in the family upbringing to educate the younger generation by harmonious personalities. Entering into a single system of general pedagogy, family pedagogy is created on the basis of the laws of general pedagogy.

The manual covers the content of family education, techniques and methods used in raising a child, the correspondence of raising a child in the family to the moral development of mankind, the skill of family education and its application in practice, the state of problems associated with raising a child in the family, and studying the principles of family education.

1-MAVZU. OILA PEDAGOGIKASI - FAN SIFATIDA

1. Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Oila pedagogikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Komil insonni voyaga yetkazishda oila va jamiyatning o'rnini uning tarbiyadagi uzviyligi, uzluksizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir.

Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishiga hizmat qiladi, ta'lim-tarbiyaga doir bilimlarni mushtarak holda jamlab, farzand tarbiyasiga doir tartib- qoidalarni sinovdan o'tkazuvchi va amalda tatbiq qiluvchi ota – onaning faoliyatidir.

“Oila pedagogikasi” fanining maqsadi, vazifalari va predmeti. Har qanday jamiyat oilalardan tarkib topadi. Oila jamiyatning kichik, biroq, eng asosiy bo'g'ini sanaladi. Zero, jamiyatning mavjudligi unda yashovchi kishilarni o'z ichiga olgan oilalarning borligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra oila va jamiyat o'rtasidagi aloqaning mustahkamligi, bir-birini taqozo etishi nihoyatda muhim. Bu muhimlik jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi uchun nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilada ham bola (farzand)lar tarbiyasini to'g'ri, samarali tashkil etishni taqozo qilishida aks etadi.

Kishilik taraqqiyotining turli bosqichlarida ham oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. To'g'ri, ba'zan bu e'tibor bir qadar sustlashgan (sobiq Ittifoq davrida sotsializm g'oyalariga ko'ra shaxsning tarbiyasida oila emas, balki jamiyatning etakchi o'rin tutishi alohida uqtirilar edi). Biroq, shuni alohida atib o'tish lozim, hech bir jamiyat va ijtimoiy tuzumda oilaning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati, o'rnini va roli butunlay inkor etilmagan.

O'zbekiston hududida esa qadim-qadimdan oilaning ijtimoiy-tarbiyaviy kuchga egaligi alohida e'tirof etilib, yuksak baholangan. O'zbekiston mustaqilligi yillarida esa bu bahoning qiymati yanada oshdi.

Jumladan, “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolada oilaning jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqei, uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi, shaxs tarbiyasida g'oyaviy asos bo'luvchi mafkuraviy qarashlarni shakllantirishdagi roliga alohida urg'u beriladi: “Oila – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila – jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir”¹. Shu bilan birga ushbu risolada “jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash” respublika ma'naviy hayotida ustuvor o'rin tutadigan milliy mafkurani shakllantirish, uning maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'lishi aytib o'tiladi.

Darhaqiqat, oila va jamiyat o'zaro yaxlit ekan, o'z-o'zidan ijtimoiy taraqqiyotning negizi uning muhim bo'g'inida tashkil etiladigan tarbiya mazmuni, g'oya va tamoyillari asosida qo'yilishi shubhasiz. Shu sababli O'zbekiston tarixiy taraqqiyotida yangi davr bo'lgan mavjud sharoitda oilada bolalarni tarbiyalash masalasiga ham yangicha yondashuvni qaror toptirish taqozo etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati milliy qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, boyitish, milliy meros va madaniyat namunalarini chuqur o'rganish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy harakatga uyg'un ravishda milliy pedagogik ta'limotlarni tadqiq qilish, shaxsga ta'lim berish, uni tarbiyalash borasidagi Sharq va Farb tajribalarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishda, tobora jahon ta'limi standartlari darajasiga erishilayotganlikda aks etadi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida milliy ta'lim mazmunining asosi bo'lgan – uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida o'qitiladigan o'quv

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 66-bet.

fanlarini ilmiy-metodologik, g'oyaviy yangilash, ijtimoiy taraqqiyot, ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan eng so'nggi yutuqlar bilan boyitish, ilg'or metodika hamda pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga samarali tatbiq etish yo'lida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jamiyatning mavjud ehtiyojidan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim tizimida muayyan o'quv fanlarini o'qitish yo'lga qo'yildi. Mavjud o'quv fanlar mazmuni barkamol shaxs kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega qarashlar, tamoyillar bilan boyitildi. Xususan, mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida pedagogik turkum fanlar sirasida alohida o'ringa ega bo'lgan "Oila pedagogikasi" fanining nazariy-metodologik asoslari yanada rivojlantirildi, asrlar davomida milliy pedagogikada qo'llanilib kelayotgan shakl, metod va vositalar bilan boyitildi.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan alohida tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini, eng avvalo, oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat tarixi qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarish nuqtai nazaridan asl mohiyatini saqlanib qolgan **ijtimoiy tuzilma** sanaladi

Jamiyatning ajralmas bo'lagi bo'lgan oila nafaqat har bir shaxs, balki har bir millat, elat taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday jamiyatning rivoji, millatning taraqqiy etishida oilaning o'rni alohida ekanligini ta'kidlar ekan, O'zbekiston Respublikasi I-Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni bayon etadi: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda

oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir"².

Oila nikohga yoki a'zolarining ijtimoiy turmush tarzi, o'zaro axloqiy javobgarligi va o'zaro yordamiga asoslangan qon-qarindoshlarning kichik guruhi³.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga quyidagicha ta'rif mavjud: "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib, yuridik ma'noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir"⁴.

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta'riflaydilar. Oilani tashkil etuvchi ushbu guruh nikoh orqali hamda yaqin urug'chilik rishtalari bilan bir-biriga bog'langan bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarga xos bo'lgan muhim jihatlar – bu o'zaro mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, mas'uliyatlilik va albatta, hayot, turmush tarzidagi umumiylikdir⁵.

Sotsiologiya oilaga yaxlit ijtimoiy organizmning qismi, jamiyat bo'g'ini, ijtimoiy tarbiya jamoasi sifatida qaraydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlar albatta, oilada o'z aksini topadi. Biroq boshqa – ishlab chiqarish, kasbiy, siyosiy-ijtimoiy birlashmalardan farqli ravishda oila to'g'ridan-to'g'ri qayta qurishga uchramaydi. Oilaning axloqiy, psixologik jihatdan yangilanishi uzoq, murakkab, qarama-qarshiliklarga bog'liq jarayondir.

Iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan yangi axloq me'yorlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar oilada sekin sur'atlarda shakllanadi. Oilaviy o'zgarishlarning amalga oshishida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari biologik, psixologik, demografik omillar ham ishtirok etadi.

² Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: "Маънавият", 2008. – 52-бет.

³ Педагогический энциклопедический словарь – Москва: Владос, 2002. – С.257.

⁴ Каримова О. Оила ҳуқуқи асослари – Тошкент: "Ўқитувчи", 2003.

⁵ Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси – Тошкент: Фан, 2006. – 10-бет.